

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MINGYASHAROVA SEVARA ABDULLA QIZI

**AXBOROTLASHGAN TA'LIMDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING
KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fani misolida)**

13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the dissertation abstract for the Doctor of Philosophy (PhD) in
Pedagogical Sciences**

Mingyasharova Sevara Abdulla qizi

Axborotlashgan ta’limda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fani misolida).....3

Мингяшарова Севара Абдулла кизи

Усовершенствование методики развития профессиональных компетенций будущих инженеров в информационном образовании (на примере предмета информационные технологии в технических системах).....21

Mingyasharova Sevara Abdulla qizi

Improving the methodology for developing the professional competencies of future engineers in information education (on the example of information technologies in technical systems).....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.T.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MINGYASHAROVA SEVARA ABDULLA QIZI

**AXBOROTLASHGAN TA'LIMDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING
KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fani misolida)**

13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.Pd/Ped10143 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<https://tdmau.uz>) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirov Baxtiyor Eshmurzayevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yakubjonova Dilobar Batirovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Boynazarov Ilhom Mahmudovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.14.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "15" 08 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190100, Termiz shahar, Islom Karimov ko'chasi, 288a-uy. Tel: (876) 221-87-20; faks: (376) 221-71-17; e-mail: info@tdmau.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190100, Termiz shahar, Islom Karimov ko'chasi, 288a-uy. Tel: (876) 221-87-20; faks: (376) 221-71-17; e-mail: info@tdmau.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «01» 08 da tarqatildi.
(2026-yil «01» 08 dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi)



M.Q.Urozov

ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d. (DSc), professor

O.Sh.Ochildiyev

ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, t.f.d. (PhD), dotsent

O.N.Sultonova

ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimini raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda ulardan tizimli ravishda foydalanish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. UNESCO tomonidan 2023-yil 26-iyulda e'lon qilingan hisobotda "Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash talabalar manfaatlari, tenglik, barqarorlik va ta'lim sifati asosida tashkil etilishi"¹ asosiy vazifalardan biri etib belgilangan va ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda axborotlashgan ta'lim muhitiga tayangan pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida ta'lim tizimi barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida baholanib, ushbu jarayonda oliy ta'lim muassasalaridagi bo'lajak muhandislarning axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqot ishlari ta'lim samaradorligini oshirishda axborotlashgan muhitni shakllantirish, ta'lim platformalari va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda ularning imkoniyatlarini ta'lim sifatiga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini zamon talablariga mos holda shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mamalakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida o'quv jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, raqamli texnologiyalarini keng joriy etish, uning konseptual modelini ishlab chiqish hamda ular asosida innovatsion o'quv metodik ta'minotni shakllantirishga doir amaliy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmonida ta'lim tizimini raqamlashtirish, elektron ta'lim platformalarini rivojlantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari asosiy maqsad qilib belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanish, amaliy topshiriqlarni bajarishga oid didaktik imkoniyatlarni ishlab chiqish, shuningdek, talabalik bosqichidan boshlab raqobatdosh muhandis kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan yuqori samarador strategik yondashuvni tizimli ravishda shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-son,

¹ UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education — A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023. – Published on 26 July 2023.

2020-yil 6-noyabrda “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son, 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son, 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-son Farmonlari, 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohatlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-son, 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashtirishgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda kompetentlikni rivojlantirish masalalari H.I.Xanbabayev, S.J.Yaxyayev, B.E.Qodirov, B.A.Umarov, N.B.Karimovalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, fan va pedagogik jarayonni kompetensiya asosida qayta qurish va yangi texnologiyalarni joriy etish masalalari bilan O.A.Qo‘ysinov, O‘.N.Sultonova, D.R.Shermumammedova, A.A.Nazarovlar tadqiqot olib borganlar. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, kredit-modul tizimini joriy etish va ta’lim jarayonini qayta loyihalash L.R.Zaripov ishida o‘z aksini topgan, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik” tushunchalarini ta’lim jarayoniga moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvni aniqlash yuzasidan N.A.Muslimov, J.D.Avazov, F.I.Mamurova, E.A.Hafizov, Sh.G‘.Musurmonova, N.Y. Rasulova va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida aniqlash va baholash bo‘yicha tadqiqotlar A.B.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, V.A.Kozyrev, N.F.Radionovalarning asarlarida uchraydi, pedagog va mutaxassisning professional shakllanishi va rivojlanishining psixologik tizimini tahlil qilish bo‘yicha N.V.Kuzmina, E.H.Shiyanov,

² Xanbabayev H.I. Pedagogika yo‘nalishi talabalarining raqamli texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. doktorlik diss. – Namangan, 2024. – 121 b., Qo‘ysinov O.A., Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavr o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-nazariy asoslari. Ped. fan. nom...diss, T., 2008, - 160 b, Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Diss. ped. fan. dok (DSc) – Toshkent: 2023. – 125 b., Avazov J.D. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Avtoref... PhD. Qarshi 2022-18 b.

V.I.Shuvalova, A.K.Markova, L.M.Mitinalar ilmiy izlanishlar olib borganlar, ta'lim jarayonini didaktik va texnologik asosda tashkil etishning samarali va tizimli mexanizmlarini loyihalash va boshqarish masalalarini V.P.Bespalko, V.A.Slasteninning ishlarida ko'rish mumkin, shaxs va faoliyatning umumiy psixologik nazariyasini ilmiy asoslash A.P.Mixaylov, S.L.Rubinshteynning tadqiqotida o'z aksini topgan³.

Xorijiy davlatlarda fikrlash darajalarini taksonomiya orqali tizimlashtirish va informatika ta'limida kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi bilan B.Blum, D.Mandic, G.Jotanovic, G.Jausevac shug'ullanganlar, muhandislik ta'limida raqamli transformatsiya va uning ta'siri yuzasidan L.Gumaelius, N.Lyngdorf, Y.Zhang tadqiqot olib borganlar, ta'lim jarayonida pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari M.Griffin, K.Zeichner kabi olimlar ishlarida ochib berilgan⁴.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, ta'limiy dasturlar, mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi, raqamlashtirish orqali amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim mexanizmlari takomillashtirilmaganligi va texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda yangicha yondashuvga asoslangan metodlarning ishlab chiqilmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining "Oliy ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va uni rivojlantirish omillari" (2021-2024-yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik xaritani ishlab chiqish;

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini axborotlashgan ta'limda rivojlantirish modelini takomillashtirish;

³ Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении: научно-методическое пособие. – М.: Издательство Института образования человека, 2013. – 73 с., Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42., Kozyrev V.A., Rubinshteyn S.L. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 713 с.

⁴ Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive domain. New York: Longmans, Green: 1956. – 207 p., Gumaelius L., Inga-Britt Skogh va boshq. Engineering education in change. A case study on the impact of digital transformation on content and teaching methods in different engineering disciplines // European Journal of Engineering Education. 2024. – Vol. 49. – No. 1. – 70-93-b., Griffin M. Training of trainers // Journal of Staff Development. – 1999. – № 20 (3). – R. 52-53., Lyngdorf, N. E. R., Jiang D., Zeichner K., Wray S. The teaching portfolio in US teacher education programs: what we know and need to know // Teaching and Teacher Education. – 2001. – №7. – P. 613-621.

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani mashg'ulotlari jarayonida rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislar kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalarini baholash va olingan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak muhandislarning axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilanib, bunda Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Namangan davlat texnika universiteti va Jizzax politexnika institutlaridan 537 nafar talabalar respondent sifatida ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini texnika oliy ta'lim muassasalarida "Texnologik mashinalar va jihozlar" ta'lim yo'nalishi talabalarini axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirishning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida respublikamizdagi va chet eldagi muhandislik oliy ta'lim muassasalarining fan dasturlari, o'quv reja, malaka talablari va ish tajribalari tahlili, ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, texnika oliy ta'lim muassasalari tajribasini umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, talabalar faoliyatini kuzatish, kompetensiyaviy yondashuv asosida diagnostik tahlil, raqamli monitoring va uning tahlili, pedagogik tajriba sinovni olib borish va ularning natijalarini matematik-statistik metodlari yordamida qayta ishlash, integrativ yondashuv va dizayn usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik xarita "talaba-amaliyotchi-raqobatdosh muhandis" ta'lim trayektoriyasi bosqichlari va uzluksiz ravishda psixologik, pedagogik, didaktik va texnik jihatlarini integratsiyasini ta'minlash orqali ishlab chiqilgan;

axborotlashgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli rejalashtirish, o'rganish, amaliy faoliyat va refleksiya elementlaridan tashkil topgan proeng.uz amaliyot platformasiga asoslangan dasturiy-didaktik ta'minotni kuchaytirish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta'minoti "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani mashg'ulotlarini AKT vositalari bilan integratsiyalashga ko'ra muhandislik masalalarini modellashtirishga yo'naltirilgan va talabalarning mustaqil faoliyatini koordinatsiya qiluvchi moslashuvchan (adaptiv) smart-topshiriqlar majmuini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak muhandislarda axborot-kasbiy kompetensiyalari (integrativ, innovatsion, analitik va mustaqil kreativ bilimlarni o'zlashtirish)ning rivojlanganlik darajasi raqamli monitoring va kriterial baholash usulini qo'llash orqali aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: "Oliy matematikadan misol va masalalar to'plami (II qism)" nomli o'quv qo'llanma ishlab

chiqilib, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Mazkur qo'llanma bo'lajak muhandislarning nazariy bilimlarini amaliy masalalar orqali mustahkamlash, matematik modellash asosida texnik muammolarni hal etish hamda ularning mantiqiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u axborotlashgan ta'lim muhitida raqamli resurslar bilan uyg'un holda qo'llanilib, bo'lajak muhandislarning bilimlarini mustaqil nazorat qilish, o'z-o'zini baholash va refleksiya jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda shakllantirishning mazmunli-konseptual modelini o'quv jarayonida refleksiya qila olish, talabaning intellektual salohiyatini uzluksiz ravishda oshirib borish uchun HotPotatoes dasturida "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalariga doir boshqotirmalar" yaratildi hamda talabalarning malakaviy amaliyotini samarali tashkil etishga asoslangan proeng.uz platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi.

Axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislarning "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'rganish jarayonida muhandislikka oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida "Test duel" innovatsion metodidan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Bu esa bo'lajak muhandislar faolligi va mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlarining oshishiga olib keldi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini respublikamiz, MDH va xorijlik olimlarning tadqiqot ishiga asoslanganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va amaliy anjuman materiallari, OAK tomonidan tan olingan jurnallardagi maqolalar, o'quv adabiyotlarning nashr etilganligi, tadqiqot vazifalariga mos, o'zaro uyg'unlashtirilgan metodlarning qo'llanilishi, tizimli tahlil usullaridan foydalanish hamda olingan natijalarning matematik-statistik jihatdan asoslab berilishi bilan ta'minlagan. Shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi va natijalarning tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishi ushbu tadqiqotning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy yondashuvlarning boyitilganligi, taklif etilgan didaktik model, "talaba-amaliyot-raqobatdosh muhandis" tamoyili asosida uzluksiz ta'lim trayektoriyasi va monitoring mexanizmlarini mujassam etgan strategik xarita ishlab chiqilganligi, pedagogik texnologiyalarni boyituvchi "Test duel" innovatsion metodining ilmiy asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak muhandislarning axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda malakaviy amaliyotni samarali tashkil etish uchun ularning shakl, metod, vositalari va baholash mezonlari ishlab chiqilib, platforma yaratildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Ishlab chiqilgan yangi innovatsion metod va usullarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishga doir ishlarning ilmiy asoslanganligi va ular asosida o'quv reja hamda malaka talablari takomillashtirilib,

o'quv adabiyotlarini yaratishga hamda bo'lajak muhandislarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ularning kompetensiyalarini rivojlanishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborotlashgan ta'limda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik xarita "talaba-amaliyotchi-raqobatdosh muhandis" ta'lim trayektoriyasi bosqichlari va uzluksiz ravishda psixologik, pedagogik, didaktik va texnik monitoringini ta'minlashga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalari "Oliy matematikadan misol va masalar to'plami (II qism)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 02/01-01-485-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur o'quv qo'llanma ta'lim sifatining oshishiga va bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qilgan;

axborotlashgan ta'lim sharoitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli rejalashtirish, o'rganish, amaliy faoliyat va refleksiya elementlaridan tashkil topgan proeng.uz amaliyot platformasiga asoslangan dasturiy-didaktik ta'minotni kuchaytirish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar "Media savodxonlik va axborot madaniyati" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 02/01-01-485-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyalari rivojlangan malakali, raqobatbardosh muhandis tayyorlashga yo'naltirilgan didaktik imkoniyat oshirilgan;

bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta'minoti "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani mashg'ulotlarini AKT vositalari bilan integratsiyalashga ko'ra muhandislik masalalarini modellashtirishga yo'naltirilgan va talabalarning mustaqil faoliyatini koordinatsiya qiluvchi moslashuvchan (adaptiv) smart-topshiriqlar majmuini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalari "Materialshunoslik" nomli darslik mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 02/01-01-485-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar, metodlar va vositalar tizimlashtirilib, ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

bo'lajak muhandislarda axborot-kasbiy kompetensiyalari (integrativ, innovatsion, analitik va mustaqil kreativ bilimlarni o'zlashtirish)ning rivojlanganlik darajasi raqamli monitoring va kriterial baholash usulini qo'llash orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "Pegagogik dasturiy vositalar" (1-qism) nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish

tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 02/01-01-485-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak muhandislarning kasbga mas'uliyat kompetensiyasining rivojlanish metodikasini takomillashtirish mazmuni boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro hamda 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilib, mutaxassislar tomonidan ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy-metodik ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqola nashr qilingan bo'lib, ulardan 6 tasi respublika, 5 tasi esa xorijiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, dissertatsiya natijalari asosida ishlab chiqilgan 1 ta virtual elektron dastur uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti aniqlangan, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, nazariy va amaliy ahamiyati, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiya ishining **“Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini axborotlashgan ta'limda rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'lim va tarbiya jarayonida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy tadqiqot ishlar tahlili va ularning nazariy asoslari, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda axborotlashgan ta'limning o'rni, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tushunchalarga mualliflik ta'riflari, bo'lajak muhandislarning ta'lim olish jarayonlarida duch keladigan muammolari va ularga ilmiy yondashuvga asoslangan yechimlar, axborotlashgan ta'lim va an'anaviy ta'limning qiyosiy tahlili, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini axborotlashgan ta'limda rivojlantirishga xizmat qiluvchi proeng.uz nomli malakaviy amaliyot platformasining sxemasi va afzalliklari hamda uning didaktik imkoniyatlari bayon etilgan.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda PF-5847 Farmonida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va talabalarning axborotlashgan ta'limda

kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy-amaliy va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda kasbga doir muammoli vaziyatlarda noan'anaviy yechimlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligini asoslab beradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-avgustdagi "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 493-son Qarori asosida ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol o'qitish usullarini joriy etish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan bo'lajak muhandislarda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, kreativ fikrlash, muammolarni tahlil qilish va jamoaviy ijodiy faoliyat kabi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik vazifa hisoblanib kelmoqda. Shunga asosan "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim olish jarayonida "Texnologik mashinalar va jihozlar" ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, darslarda axborotlashgan ta'limni yaratish, ularni kompetensiyaviy yondashuv asosida "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonining mantiqiy tuzilmasini quyidagi chizmada tasvirladik (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitish mexanizmi


Chizma vertikal zanjir shaklida tuzilgan bo'lib, fanni o'qitish jarayoni uchta asosiy mexanizm orqali amalga oshiriladi. Bularga loyiha asosida o'qitish, modellashtirish asosida o'qitish va raqamli muhit asosida o'qitish kiradi. Foydalanilgan har bir mexanizm orqali bo'lajak muhandislarda olti turdagi kasbiy kompetensiyalar rivojlanadi. Har bir kompetensiyalar ma'lum raqamli vositalar va

texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Yakuniy natija sifatida raqamli texnologiyalarni egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos raqobatbardosh muhandis tayyorlanadi. Mazkur chizma "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonining butun mantiqiy tuzilmasini qisqa, aniq va tizimli ko'rsatadi hamda keyingi tadqiqot bosqichlari – strategik xarita va pedagogik modelni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Malakaviy amaliyotni raqamlashtirish – bu amaliyot jarayonini raqamli vositalar yordamida boshqarish, kuzatib borish, baholash va hujjatlashtirish jarayonini anglatadi. Bu jarayon o'z o'rnida talabalar, amaliyot rahbari va tashkilot vakillari uchun samaradorlikni oshiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda talabalarining muhandislikka oid kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni inobatga olgan holda tadqiqot ishimizda talabalarining malakaviy amaliyotini raqamlashtirish maqsadida proeng.uz platformasi ishlab chiqildi. Amaliyotni platforma orqali tashkil etish amaliyot jarayonini avtomatik va tezkor bo'lishini, talabalarining hisobotlarni elektron topshirish va o'z baholarini kuzatib borishlari imkoniyatini yaratadi. Amaliyotga doimiy ravishda talabalarining qatnashishi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu OTM va korxona tashkilotlari o'rtasidagi munosabatni ham yaxshilaydi.

Bu platforma asosida amaliyotni tashkil etish va an'anaviy tashkil etishining qiyosiy tahlilini ko'rib chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Amaliyotni platforma orqali va an'anaviy tarzda tashkil etishning qiyosiy tahlili


Hisobotlarni platforma orqali topshirish talabalarda raqamli savodxonlikning shakllanishida, zamonaviy texnik bilimlarni egallashida, vazifalarni vaqtida bajarish va o'z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishida, yangicha texnik va texnologik jarayonlarni o'rganishida, yangicha zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassis kadr bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Axborotlashgan ta’limda bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo’lajak muhandislarning “talaba – amaliyot – raqobatdosh muhandis” deb nomlangan uzluksiz trayektoriyasi asosida strategik xarita ishlab chiqilgan va bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini axborotlashgan ta’limda rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli takomillashtirilgan. Shu bilan birga, bo’lajak muhandislarga “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini o’rgatish metodikasini rivojlantirish jarayoni yoritilgan, yangi zamonaviy “Test duel” innovatsion metodi va undan foydalanish metodikasi ochib berilgan hamda amaliyotga tadbqiq qilingan.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida muhandis kadrlar tayyorlash tizimining tubdan yangilanishi, sanoatning raqamlashtirilishi, natijada ta’lim jarayonini kompetensiyaviy, amaliyotga yo’naltirilgan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan tizim sifatida qayta tashkil etishga qaratilgan strategik xarita ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).


Strategik xarita talabalarning oliy ta’limda tahsil olish jarayonidan boshlab toki universitetni tamomlaguniga qadar malakali, kasbiy kompetensiyaga ega bo’lgan, raqobatbardosh kadr bo’lib yetishishining uzluksiz ta’lim trayektoriyasi ishlab chiqilgan. Bu xarita asosan to’rt bosqichdan iborat bo’lib, ta’lim jarayonining pedagogik, psixologik, didaktik va texnik jihatlari inobatga olingan.

Strategik xaritaning birinchi bosqichi raqamli tayyorlov va adaptatsiya jarayoni bo’lib, bu davrda yangi qabul qilingan talaba oliy ta’lim muhitiga moslashadi, fundamental fanlarni o’zlashtiradi va o’zining boshlang’ich kasbiy kompetensiyalarini shakllantira boshlaydi. Ikkinchi bosqichda esa nazariy bilimlar amaliy vazifalar orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonni shakllanishida “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani kasbiy tayyorgarlikning asosiy texnologik vositasi sifatida namoyon bo’ladi. Bunda talabalar texnik dasturlar bilan ishlash, modellashtirish, texnik muammolarni hal qilish, loyiha topshiriqlarini bajarish, raqamli vositalardan foydalanish kabi kasbiy ko’nikmalarni egallaydilar. Uchinchi bosqich markaziy qism hisoblanib, bunda raqamli platforma asosida malakaviy amaliyotni tashkil etish orqali ta’lim jarayonini an’anaviy shakldan farqli ravishda raqamli platforma orqali boshqariladi. Bu jarayon orqali ularning individual rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilish, texnologik jarayonlarni tahlil qilish kompetensiyalari rivojlanadi. To’rtinchi bosqichda esa talabalarning bitiruvni amalga oshirish va professional muhandis bo’lib yetishishlari uchun ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikka alohida ahamiyat qaratiladi. Natijada talabalarda real muammolar asosida loyiha ishlab chiqish va texnologik yechimlarni asoslash qobiliyati shakllanadi.



3-rasm. Raqobatdosh muhandis tayyorlashning strategik xaritasi

Axborotlashgan ta’limda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli takomillashtirilgan. Mazkur model maqsadli, tashkiliy-metodologiya, mazmunli-jarayon va natijaviy bloklarni o‘z ichiga olgan bo‘lib har bir blok axborotlashgan ta’limda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fani jarayonida takomillashtirishga xizmat qiladi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli

Modelimizning maqsadli bloki ijtimoiy buyurtma, maqsad, vazifalar va strategiya komponentlarni o'z ichiga qamrab oladi. Tashkiliy-metodologiya bloki yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar kabi asosiy uch qismni o'z ichiga olgan. Tashkiliy-metodologik komponentning markaziy va integrativ qismi sifatida strategik rivojlanish xaritasi joylashtirilgan. Mazkur strategik xarita bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish trayektoriyasini ifodalovchi metodik tizim hisoblanadi. Strategik xarita modeldagi nazariy-metodologik asoslar, "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish mexanizmi, kasbiy kompetensiyalar va malakaviy amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Mazmunli jarayon blokida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, ta'lim me'todlari, shakllari, vositalari va dasturiy-didaktik ta'minoti yoritib berilgan. Diagnostik natija blokida esa baholashning innovatsion, integrativ va analitik mezonlari, baholashning eng yuqori, yuqori, o'rta darajalari hamda pedagogik tajriba-sinov bosqichlari tashkil etish asosida axborotlashgan ta'limda kasbiy kompetensiyasi rivojlangan muhandis shakllanadi. E'tiborli jihati shundaki, agar diagnostik natijalar orqali ko'zlangan maqsad to'liq ro'yobga chiqmagan bo'lsa, jarayon yana tashkiliy-metodologik bosqichga qaytadi. Bu qayta aloqa mexanizmi takroriy yondashuv hisoblanib, ayni paytda, jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borish va oxir-oqibatda maqsadga to'liq erishish uchun zarur sharoit yaratadi.

"Test-duel" metodi – bu talabalarning bilimini baholash va mustahkamlashga qaratilgan interfaol o'qitish usuli bo'lib, unda ishtirokchilar o'zaro savol-javob asosida bellashuv faoliyatini olib boradilar. Mazkur metodda talabalar kichik guruhlariga yoki juftliklarga bo'linib, berilgan test savollariga navbatma-navbat javob beradilar hamda bir-birining bilimini tekshiradilar. Ushbu jarayon raqobat va hamkorlik muhitini uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladi.

